

## KRIPTOVALYUTALAR VA SOYA IQTISODIYOTI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK: MOLIYAVIY XAVFSIZLIK VA DAVLAT NAZORATI MASALALARI

Rajabboyeva Farzona Safo qizi

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti 1-kurs talabasi, rajabboyevafarzona@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kriptovalyutalarning zamonaviy iqtisodiyotdagi o'рни hamda ularning soya iqtisodiyoti bilan o'zaro bog'liqligi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida kriptovalyutalarning asosiy xususiyatlari - markazlashmaganlik, anonimlik va tezkor tranzaksiyalar - norasmiy iqtisodiy faoliyatni kengaytirishdagi roli nuqtayi nazaridan ko'rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada kriptovalyutalarning soliqqa tortish tizimiga, moliyaviy xavfsizlikka hamda davlat nazorat mexanizmlariga ta'siri baholanadi. Xalqaro tajribalar asosida turli mamlakatlarda qo'llanilayotgan tartibga solish yondashuvlari tahlil qilinib, ularning samaradorligi solishtiriladi. Tadqiqot natijasida kriptovalyutalar iqtisodiyot uchun ikki tomonlama - innovatsion rivojlanish omili va potensial xavf manbai sifatida namoyon bo'lishi asoslab beriladi. Maqola yakunida O'zbekiston sharoitida kriptovalyutalarni tartibga solish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** kriptovalyutalar, soya iqtisodiyoti, blokcheyn, moliyaviy xavfsizlik, pul yuvish, soliqqa tortish, raqamli iqtisodiyot, anonimlik, davlat nazorati, kriptovalyutalar

**Аннотация:** В данной статье проводится научный анализ роли криптовалют в современной экономике и их взаимосвязи с теневой экономикой. В ходе исследования рассматриваются ключевые характеристики криптовалют - децентрализация, анонимность и высокая скорость транзакций - с точки зрения их влияния на расширение неформальной экономической деятельности. Кроме того, оценивается влияние криптовалют на налоговую систему, финансовую безопасность и механизмы государственного регулирования. На основе международного опыта анализируются различные подходы к регулированию криптовалют в разных странах и сопоставляется их эффективность. В результате исследования обосновывается двойственная природа криптовалют как фактора инновационного развития и потенциального источника рисков для экономики. В заключении предлагаются практические рекомендации по регулированию криптоактивов в условиях Узбекистана.

**Ключевые слова:** криптовалюты, теневая экономика, блокчейн, финансовая безопасность, отмывание денег, налогообложение, цифровая экономика, анонимность, государственное регулирование, криптоактивы

**Abstract:** This article provides a scholarly analysis of the role of cryptocurrencies in the modern economy and their relationship with the shadow economy. The study examines key features of cryptocurrencies- decentralization, anonymity, and high transaction speed- from the perspective of their impact on the expansion of informal economic activities. Furthermore, the paper evaluates the influence of cryptocurrencies on taxation systems, financial security, and state regulatory mechanisms. Based on international experience, different regulatory approaches adopted by various countries are analyzed and

their effectiveness is compared. The findings highlight the dual nature of cryptocurrencies as both a driver of innovative economic development and a potential source of financial risk. The article concludes with practical policy recommendations for regulating crypto-assets in the context of Uzbekistan.

**Keywords:** *cryptocurrencies, shadow economy, blockchain, financial security, money laundering, taxation, digital economy, anonymity, government regulation, crypto-assets.*

## KIRISH

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi global moliyaviy tizimda tub o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Ayniqsa, kriptovalyutalar va blokcheyn texnologiyalarining paydo bo'lishi an'anaviy moliyaviy institutlar faoliyatiga muqobil tizim sifatida shakllanib, iqtisodiy munosabatlarning yangi shakllarini yuzaga chiqarmoqda. Kriptovalyutalar markazlashmaganligi, yuqori darajadagi anonimlikni ta'minlashi va tezkor tranzaksiyalarni amalga oshirish imkoniyati bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, ushbu xususiyatlar ularni nafaqat qonuniy iqtisodiy faoliyatda, balki soya iqtisodiyoti doirasida ham keng qo'llanilishiga sabab bo'lmoqda.

Soya iqtisodiyoti har qanday davlat iqtisodiy tizimining ajralmas qismi bo'lib, uning yuqori darajada rivojlanishi davlat byudjeti daromadlarining kamayishiga, iqtisodiy barqarorlikning izdan chiqishiga va moliyaviy nazoratning susayishiga olib keladi. Kriptovalyutalarning keng tarqalishi esa ushbu jarayonni yanada murakkablashtirib, moliyaviy oqimlarni kuzatish va nazorat qilishni qiyinlashtiradi. Ayniqsa, anonim tranzaksiyalar imkoniyati noqonuniy savdo, soliqlardan qochish va pul yuvish kabi faoliyatlarni yashirish uchun qulay sharoit yaratadi.

Mazkur maqolaning dolzarbligi shundan iboratki, kriptovalyutalar va soya iqtisodiyoti o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik hali to'liq o'rganilmagan bo'lib, bu yo'nalishda chuqur ilmiy tahlil olib borish zarurati mavjud. Tadqiqotning asosiy maqsadi kriptovalyutalarning soya iqtisodiyotiga ta'sir mexanizmlarini aniqlash, ularning moliyaviy xavfsizlikka ta'sirini baholash hamda samarali davlat nazorati choralari ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun maqolada nazariy tahlil, solishtirma tahlil hamda umumlashtirish usullaridan foydalaniladi.

Ushbu tadqiqotning nazariy asoslari zamonaviy moliyaviy tizimlar evolyutsiyasi, raqamli iqtisodiyot konsepsiyasi hamda norasmiy iqtisodiyot nazariyalariga tayanadi. Kriptovalyutalar an'anaviy pul nazariyasidan farqli ravishda markazlashmagan moliyaviy tizim sifatida shakllanib, iqtisodiy munosabatlarning yangi paradigmasini yuzaga keltirmoqda. Klassik iqtisodiy yondashuvlarda pul davlat tomonidan nazorat qilinadigan vosita sifatida qaralgan bo'lsa, kriptovalyutalar ishonchni markaziy institutlardan algoritmik tizimlarga o'tkazadi.

Kriptovalyutalarning nazariy asosini blokcheyn texnologiyasi tashkil etadi. Blokcheyn - bu markazlashmagan va o'zgartirib bo'lmaydigan reyestr bo'lib, unda barcha tranzaksiyalar qayd etiladi. Ushbu texnologiya orqali tranzaksiyalarning shaffofligi ta'minlansa-da, foydalanuvchilarning shaxsiy identifikatsiyasi yashirin bo'lib qoladi<sup>15</sup>.

<sup>15</sup> Nakamoto, S. (2008). Bitcoin: A peer-to-peer electronic cash system.

Natijada kriptovalyutalar bir vaqtning o'zida ham shaffoflik, ham anonimlikni ta'minlovchi tizim sifatida namoyon bo'ladi.

Soya iqtisodiyoti nazariy jihatdan rasmiy statistik hisobga olinmaydigan va davlat nazoratidan tashqarida amalga oshiriladigan iqtisodiy faoliyatlar majmuasini anglatadi. Ushbu faoliyatlar soliqdan qochish, noqonuniy savdo va yashirin daromadlarni o'z ichiga oladi. Raqamli texnologiyalar rivojlanishi natijasida soya iqtisodiyotining yangi shakllari yuzaga kelib, uni aniqlash yanada murakkablashmoqda<sup>16</sup>.

Amaliy jihatdan kriptovalyutalar global moliyaviy tizimda bir nechta funksiyalarni bajaradi. Ular tezkor xalqaro pul o'tkazmalarini amalga oshirish, investitsiya vositasi sifatida foydalanish hamda ayrim hollarda noqonuniy iqtisodiy faoliyatlarda qo'llanishi bilan ajralib turadi<sup>17</sup>. Aynan shu jihatlar kriptovalyutalar va soya iqtisodiyoti o'rtasidagi bog'liqlikni kuchaytiradi. Amaliy tushunchalar doirasida "anonimlik" va "pseudonimlik" o'rtasidagi farq muhim ahamiyatga ega. Ko'plab kriptovalyutalar to'liq anonim emas, balki pseudonim bo'lib, tranzaksiyalar tarixini kuzatish imkonini beradi<sup>18</sup>. Shu sababli zamonaviy tahlil vositalari orqali ayrim noqonuniy faoliyatlarni aniqlash mumkin. Turli davlatlarda kriptovalyutalarni tartibga solish bo'yicha yondashuvlar farqlanadi. Ayrim davlatlar ularni qonuniylashtirib nazorat qilishni tanlagan bo'lsa, boshqalari qat'iy cheklovlar joriy etgan. Ushbu yondashuvlar kriptovalyutalarning iqtisodiyotga ta'siri va soya sektoridagi rolini belgilashda muhim omil hisoblanadi.

Kriptovalyutalar va soya iqtisodiyoti o'rtasidagi bog'liqlik bir nechta murakkab iqtisodiy va texnologik mexanizmlar orqali shakllanadi. Ushbu mexanizmlar zamonaviy raqamli moliya tizimining o'ziga xos xususiyatlari bilan izohlanadi va global iqtisodiy xavfsizlik nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi. Birinchi mexanizm - anonimlik va pseudonimlik orqali yashirin iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish imkoniyati hisoblanadi. Blokcheyn tizimida barcha tranzaksiyalar ochiq qayd etilgan bo'lsa-da, foydalanuvchi shaxsini aniqlash murakkab bo'lib qolmoqda. Shu sababli kriptovalyutalar noqonuniy savdo, pul yuvish va noqonuniy xizmatlar uchun qulay vositaga aylanmoqda. Tadqiqotlarga ko'ra, 2025-yilda kriptovalyutalar orqali noqonuniy faoliyat bilan bog'liq aktivlar hajmi sezilarli darajada oshib, milliardlab dollarni tashkil etgan<sup>19</sup>. Bu esa anonimlik omili soya iqtisodiyotini kengaytirishda asosiy rol o'ynayotganini ko'rsatadi.

Ikkinchi mexanizm - pul yuvish (money laundering) jarayonining transformatsiyasidir. Kriptovalyutalar orqali noqonuniy daromadlarni "layering" va "mixing" usullari yordamida yashirish osonlashgan. 2025-yilda kripto orqali pul yuvish hajmi kamida 82 milliard dollarga yetgani qayd etilgan<sup>20</sup>. Ushbu jarayonlarda minglab kripto-hamyonlar va vositachilar tarmoqlari qo'llanilib, an'anaviy bank tizimiga nisbatan kuzatuvni qiyinlashtiradi. Shu bilan birga, blokcheyn tahlil texnologiyalari rivojlanayotgan bo'lsa-da, real shaxslarni aniqlash hali ham murakkabligicha qolmoqda.

Uchinchi mexanizm - xalqaro moliyaviy cheklovlar va sanksiyalarni chetlab o'tish bilan bog'liq. Kriptovalyutalar davlatlar va tashkilotlar uchun an'anaviy moliyaviy tizimdan

<sup>16</sup> World Bank. (2022). Cryptocurrencies and financial inclusion.

<sup>17</sup> European Central Bank. (2022). Crypto-assets and financial stability.

<sup>18</sup> Chainalysis. (2023). Crypto crime report.

<sup>19</sup> TRM Labs. (2025). Crypto adoption and illicit finance report

<sup>20</sup> Reuters. (2026). Crypto money laundering hit \$82 billion in 2025.

mustaqil ravishda tranzaksiyalarni amalga oshirish imkonini beradi. Masalan, ayrim davlatlar kriptovalyutalardan foydalanib global moliyaviy tizimdagi sanksiyalarni chetlab o'tishga harakat qilmoqda, natijada "shadow crypto economy" shakllanmoqda. Bu esa kriptovalyutalarning geopolitik va makroiqtisodiy ahamiyatini yanada oshiradi.

To'rtinchi mexanizm - soliqdan qochish va nazoratdan tashqari kapital oqimlaridir. Kriptovalyutalar orqali amalga oshiriladigan tranzaksiyalar ko'plab hollarda milliy soliq tizimlarida to'liq qayd etilmaydi. Natijada davlat byudjetiga tushumlar kamayadi va fiskal siyosat samaradorligi pasayadi. Ayniqsa, desentralizatsiyalashgan moliya (DeFi) platformalarining rivojlanishi bu jarayonni yanada murakkablashtirmoqda.

Beshinchi mexanizm - moliyaviy tizim bilan integratsiya va risklarning uzatilishidir. So'nggi tadqiqotlar kriptovalyutalarning an'anaviy moliyaviy tizim bilan tobora ko'proq integratsiyalashayotganini va bu orqali ehtimoliy xavflar kengroq iqtisodiyotga tarqalishi mumkinligini ko'rsatmoqda<sup>21</sup>. Bu esa kriptovalyutalar orqali yuzaga kelgan soya iqtisodiyoti muammosi endilikda faqat norasmiy sektor bilan cheklanmasdan, umumiy moliyaviy barqarorlikka ham tahdid solayotganini anglatadi.

Oltinchi mexanizm - soya iqtisodiyotining kengaygan tarmoqli tuzilmasidir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, noqonuniy kripto faoliyati faqat bevosita jinoyatchilar bilan cheklanmaydi, balki kengaytirilgan "downstream" iqtisodiy tarmoqni ham shakllantiradi. 2025-yilda bunday bog'langan kripto hamyonlar orqali aylanuvchi mablag'lar hajmi 60 milliard dollardan oshgani aniqlangan<sup>22</sup>. Bu esa kripto asosidagi soya iqtisodiyoti tizimli va ko'p qatlamli ekanini ko'rsatadi.

Kriptovalyutalar va soya iqtisodiyoti o'rtasidagi bog'liqlikni chuqurroq tushunish uchun turli davlatlarning amaliy tajribalarini tahlil qilish muhimdir. Xalqaro amaliyot shuni ko'rsatadiki, kriptovalyutalarga nisbatan yondashuvlar davlatlarning iqtisodiy siyosati, moliyaviy barqarorlik darajasi va institutsional rivojlanishiga qarab sezilarli darajada farq qiladi. Avvalambor El Salvador tajribasiga nazar tashlasak. Ushbu davlat 2021-yilda Bitcoinni qonuniy to'lov vositasi sifatida joriy etgan birinchi mamlakat bo'ldi. Hukumat bu qarorni moliyaviy inklyuziyani kengaytirish, tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish va investitsiyalarni jalb qilish bilan izohladi<sup>23</sup>. Aholining katta qismi an'anaviy bank xizmatlaridan foydalanmasligini hisobga olgan holda, kriptovalyutalar norasmiy sektor uchun qulay moliyaviy vositaga aylanishi mumkinligi ta'kidlandi. Shu bilan birga, 2025-yilgi tahlillar kriptovalyutalardan foydalanish fiskal xavflarni oshirishi va davlat moliyaviy barqarorligiga tahdid solishi mumkinligini ko'rsatdi. Natijada, hukumat kriptovalyutalardan foydalanish bo'yicha siyosatini qisman qayta ko'rib chiqishga majbur bo'ldi. Bundan tashqari, rivojlangan davlatlar tajribasi, xususan, Yevropadagi kriptovalyutalarni tartibga solish yondashuvlari ham muhim. 2025-yilda Yevropa Ittifoqida "Markets in Crypto-Assets" (MiCA) reglamenti to'liq kuchga kirib, kripto bozorini kompleks tartibga soluvchi tizim yaratildi<sup>24</sup>. Ushbu tizim kripto xizmat ko'rsatuvchilar (VASP) faoliyatini nazorat qilish, foydalanuvchilarni himoya qilish va noqonuniy

<sup>21</sup> European Systemic Risk Board. (2025). Crypto-assets and financial stability.

<sup>22</sup> Business Insider. (2025). Crypto and shadow economy under sanctions.

<sup>23</sup> International Monetary Fund. (2025). El Salvador: Article IV Consultation Report.

<sup>24</sup> PricewaterhouseCoopers (PwC). (2025). Global crypto regulation report.

operatsiyalarni kamaytirishga qaratilgan. Bu esa o'z o'rnida moliyaviy shaffoflikni oshirish va soliqqa tortishni kuchaytirishga yordam beradi.

Shuningdek rivojlanayotgan davlatlarda kriptovalyutalarning norasmiy iqtisodiyot bilan integratsiyasi ham alohida ahamiyatga ega. Lotin Amerikasi va Afrika davlatlarida kriptoaktivlar inflyatsiya va milliy valyuta qadrsizlanishiga qarshi muqobil vosita sifatida qo'llanilmoqda. Biroq bunday sharoitda kriptovalyutalar ko'pincha rasmiy iqtisodiy tizimdan tashqarida qo'llanilib, soya iqtisodiyotining kengayishiga xizmat qilmoqda<sup>25</sup>.

Shuningdek, 2025-yilgi tahlillar shuni ko'rsatadiki, tartibga solingan kripto bozor segmentlarida noqonuniy operatsiyalar ulushi sezilarli darajada past bo'ladi. Masalan, nazorat ostidagi virtual aktiv xizmat ko'rsatuvchilar (VASP) orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalarda noqonuniy faoliyat darajasi ancha kamligi aniqlangan<sup>26</sup>. Bu esa samarali tartibga solish soya iqtisodiyotini kamaytirishda muhim vosita ekanini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, kriptovalyutalar va soya iqtisodiyoti o'rtasidagi bog'liqlik davlat siyosati bilan bevosita bog'liq. Qattiq cheklov innovatsiyani cheklashi mumkin, haddan tashqari erkinlik esa noqonuniy faoliyatni kengaytiradi. Eng optimal yondashuv - bu shaffoflik, nazorat va innovatsiya o'rtasida muvozanatni ta'minlovchi tartibga solish modelidir.

Kriptovalyutalar va ular bilan bog'liq moliyaviy texnologiyalar O'zbekiston iqtisodiyoti uchun yangi imkoniyatlar yaratish bilan birga, qator tizimli muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Avvalambor, O'zbekistonda kriptovalyutalar bozorining shakllanishi davlat tomonidan bosqichma-bosqich tartibga solish siyosati orqali amalga oshirilmoqda. So'nggi yillarda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan islohotlar doirasida kriptoaktivlar bilan bog'liq faoliyatni qonuniylashtirish va nazorat qilish bo'yicha muhim qadamlar qo'yildi. Biroq, mazkur sohada normativ-huquqiy baza hali to'liq shakllanmagan bo'lib, bu esa amaliyotda bir qator noaniqliklar va muammolarni keltirib chiqarmoqda<sup>27</sup>.

Birinchidan, moliyaviy xavfsizlik va soya iqtisodiyoti bilan bog'liq xatarlar muhim muammo hisoblanadi. Kriptovalyutalarning anonim yoki psevdonim xususiyati ularni noqonuniy operatsiyalar, jumladan pul yuvish va soliqdan qochish uchun qulay vositaga aylantiradi. Natijada davlat tomonidan moliyaviy oqimlarni monitoring qilish qiyinlashadi.

Ikkinchidan, aholi va biznes subyektlarining moliyaviy savodxonligi yetarli emasligi bir qancha muammolarga sabab bo'ladi. Murakkab tuzilgan blokcheyn tizimini tushunish, uni qo'llash, hamda kriptoaktivlar bilan bog'liq xavflar (firibgarlik, texnologik xatoliklar) haqida yetarli bilimga ega bo'lmagan foydalanuvchilar katta moliyaviy yo'qotishlarga duch kelishi mumkin.

Uchinchidan, texnologik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi ham muhim cheklovlardan biri hisoblanadi. O'zbekiston sharoitida blokcheyn texnologiyalarini keng joriy etish uchun zarur bo'lgan IT infratuzilmalar va mutaxassislar salohiyati hali to'liq shakllanmagan.

Shuningdek, kriptovalyutalarning qo'llanilishi bir qator imkoniyatlar eshigini ochishi mumkin. Masalan, kriptovalyutalar investitsiyalarni jalb qilish va moliyaviy innovatsiyalarni rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Raqamli aktivlar bozori

<sup>25</sup> Kanu, D. H. (2025). Regulation of cryptocurrency and its implication for financial systems.

<sup>26</sup> TRM Labs. (2025). Global crypto policy review outlook 2025-2026.

<sup>27</sup> Central Bank of Uzbekistan. (2023). Digital finance and crypto regulation report.

orqali xalqaro investorlarni jalb qilish mumkin, bu esa iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi<sup>28</sup>. Bundan, kriptovalyutalar xalqaro pul o'tkazmalarini arzonlashtirish va tezlashtirish imkonini beradi. O'zbekiston kabi migrantlar soni yuqori bo'lgan davlat uchun bu juda muhim omil hisoblanadi.

Uchinchidan, blokcheyn texnologiyasi asosida davlat boshqaruvi va moliyaviy tizimda shaffoflikni oshirish mumkin. Masalan, davlat xarajatlarini monitoring qilish yoki yer kadastr tizimlarini raqamlashtirishda blokcheyn samarali vosita bo'lishi mumkin.

Kriptovalyutalar va soya iqtisodiyoti o'rtasidagi bog'liqlikni hisobga olgan holda, O'zbekiston sharoitida samarali iqtisodiy siyosat ishlab chiqish kompleks va muvozanatli yondashuvni talab etadi. Birinchidan, normativ-huquqiy bazani takomillashtirish zarur. Kriptoaktivlar bo'yicha aniq va izchil qonunchilik tizimini shakllantirish kerak. Xususan, kriptovalyutalarning huquqiy maqomini aniqlash, virtual aktiv xizmat ko'rsatuvchilar (VASP) faoliyatini litsenziyalash va investorlarni himoya qilish borasida zarur huquqiy hujjatlar joriy etish lozim. Bu chora-tadbirlar esa o'z o'rnida bozor ishtirokchilarida ishonchni oshiradi va noqonuniy faoliyatni qisqartiradi.

Bundan tashqari, moliyaviy monitoring va nazorat tizimini kuchaytirish zarur. Kriptovalyutalar orqali amalga oshiriladigan operatsiyalarni samarali nazorat qilish uchun esa KYC (Know Your Customer) va AML (Anti-Money Laundering) talablarini majburiy joriy etish va moliyaviy razvedka tizimini modernizatsiya qilish lozim<sup>29</sup>. Bu orqali pul yuvish va noqonuniy tranzaksiyalarni aniqlash imkoniyati esa oshadi.

Kriptoaktivlar bo'yicha soliqqa tortish tizimini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Bu uchun, avvalambor, kripto daromadlarini deklaratsiya qilish tizimini joriy etish zarur. Undan keyin esa, oddiy va tushunarli soliq stavkalarini belgilash, hamda, soliq monitoringini raqamlashtirish zarur. Bu davlat byudjetiga tushumlarni sezilarli darajada oshiradi va soya iqtisodiyotini qisqartiradi.

Eng zarur bo'lgan amaliy qism – aholining kriptovalyutalar va ulardan foydalanish borasidagi moliyaviy savodxonligini oshirish. Aholi va biznes subyektlari uchun kriptovalyutalar bilan bog'liq risk va imkoniyatlar haqida keng qamrovli ta'lim dasturlarini joriy etish zarur. Masalan, ommaviy axborot vositalari, oliy ta'lim muassasalarida maxsus kurslar yoki fanlar va onlayn trening platformalari orqali bu borada tezkor va izchil harakatlar olib borish mumkin. Bu esa firibgarlik holatlarini kamaytirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, kriptovalyutalardan foydalanish orqali xalqaro hamkorlikni kuchaytirish mumkin. Kriptovalyutalar global xarakterga ega bo'lgani sababli xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish, ma'lumot almashinuvi tizimini rivojlantirish va global standartlarga moslashish kabi bir qancha imkoniyatlar mavjud. Bu transmilliy noqonuniy moliyaviy oqimlarga qarshi kurashishda muhim ahamiyatga ega.

Hozirda O'zbekistonda texnologik jihatdan rivojlanish bosqichida va shu bilan birga kriptoaktivlar bilan ishlash zaruriyati bu sohani yanada rivojlantirishga sabab bo'lmoqda. Avvalo, blokcheyn texnologiyalarini davlat xizmatlariga joriy etish, bu sohada ishlovchi IT mutaxassislarini tayyorlash va malakasini oshirish va kiberxavfsizlikni kuchaytirish kerak. Bu uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga katta xizmat qiladi. Ushbu chora-

<sup>28</sup> World Bank. (2022). Cryptocurrencies and financial inclusion

<sup>29</sup> Financial Action Task Force (FATF). (2024). Virtual assets and AML/CFT guidelines.

tadbirlar kriptovalyutalarning ijobiy jihatlaridan maksimal darajada foydalanish va ularning soya iqtisodiyotiga salbiy ta'sirini minimallashtirishga qaratilgan. Eng samarali yondashuv - bu qat'iy nazorat va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash o'rtasida muvozanatni ta'minlashdir.

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kriptovalyutalar zamonaviy iqtisodiyotning ajralmas qismiga aylanib, moliyaviy tizimning transformatsiyasida muhim rol o'ynamoqda. Ularning markazlashmagan tuzilishi, tezkor va nisbatan arzon tranzaksiyalarni amalga oshirish xususiyati iqtisodiy samaradorlikni oshirish va moliyaviy inklyuziyani kengaytirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, ushbu xususiyatlar kriptovalyutalarni soya iqtisodiyoti doirasida ham faol qo'llanilishiga zamin yaratadi. Xalqaro tajribalar esa, kriptoaktivlarga nisbatan mutlaq taqiq yoki to'liq erkinlik siyosati samarali emasligini ko'rsatib o'tdi. Eng maqbul yondashuv esa shaffoflik, nazorat va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash o'rtasida muvozanatni ta'minlovchi va tartibga solish tizimini joriy etishdir.

Ayniqsa, moliyaviy monitoringni kuchaytirish, soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish orqali soya iqtisodiyoti bilan bog'liq xatarlarni sezilarli darajada kamaytirish mumkin. O'zbekiston sharoitida esa kriptovalyutalar iqtisodiy modernizatsiya, investitsiyalarni jalb qilish va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun muhim imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga, huquqiy baza yetarlicha rivojlanmaganligi va moliyaviy savodxonlik darajasining pastligi muayyan xatarlarni yuzaga keltirmoqda.

Shu sababli mamlakatda kriptoaktivlar bozorini tartibga solishda bosqichma-bosqich, ilmiy asoslangan va xalqaro standartlarga mos yondashuvni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, kriptovalyutalar va soya iqtisodiyoti o'rtasidagi bog'liqlik murakkab va ko'p qirrali bo'lib, uni samarali boshqarish davlat siyosatining moslashuvchanligi va institutsional salohiyatiga bog'liq.

Kelgusida ushbu yo'nalishda chuqur empirik tadqiqotlar olib borish va real ma'lumotlar asosida tahlillarni kengaytirish iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nakamoto, S. (2008). Bitcoin: A peer-to-peer electronic cash system.
2. World Bank. (2022). Cryptocurrencies and financial inclusion.
3. European Central Bank. (2022). Crypto-assets and financial stability.
4. Chainalysis. (2023). Crypto crime report.
5. TRM Labs. (2025). Crypto adoption and illicit finance report.
6. Reuters. (2026). Crypto money laundering hit \$82 billion in 2025.
7. European Systemic Risk Board. (2025). Crypto-assets and financial stability.
8. Business Insider. (2025). Crypto and shadow economy under sanctions.
9. International Monetary Fund. (2025). El Salvador: Article IV Consultation Report.
10. PricewaterhouseCoopers (PwC). (2025). Global crypto regulation report.



11. Kanu, D. H. (2025). Regulation of cryptocurrency and its implication for financial systems.
12. TRM Labs. (2025). Global crypto policy review outlook 2025–2026.
13. Central Bank of Uzbekistan. (2023). Digital finance and crypto regulation report.
14. Financial Action Task Force (FATF). (2024). Virtual assets and AML/CFT guidelines